


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK HOLAT (2020-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 34 036,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 131,6 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sdi.




Shahar qishloq aholisining jami
aholiga nisbatan ulushi, % da



○ Shahar ○ Qishloq

Erkaklar va ayollarning jami
aholiga nisbatan ulushi, % da




○ Ayollar ○ Erkaklar


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-mart, ming kishi)

	2019-y.	2020-y.
Doimiy aholi soni,	33376,7	34036,8
Tug'ilganlar	159,5	170,4
Vafot etganlar	36,9	37,5
Aholining tabiiy o'sishi	122,6	132,9
Kelganlar	41,2	40,1
Ketganlar	42,6	41,5
Migratsiya saldosini	-1,4	-1,4
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	53,6	49,5
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	8,0	7,8
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	19,4	20,2
o'lim	4,5	4,4
aholining tabiiy o'sishi	14,9	15,8
tuzilgan nikohlar	6,5	5,9
nikohdan ajralishlar	1,0	0,9


Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(1-aprel holatiga ko'ra, ming kishi)



**2019-yilning mos davriga nisbatan
doimiy aholi sonining o'sish sur'ati**
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, % da)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra; respublika jami aholisiga nisbatan, % da)



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra hududlarning respublika jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand viloyatida 11,4 % ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 11,1 % ni, Qashqadaryo viloyatida 9,7 % ni va Andijon viloyatida 9,2 % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra Respublika doimiy aholisi sonining 30,8 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,7 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,5 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra; jamiga nisbatan ko'ra, % da)




● mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar

● mehnatga layoqatli yoshdagilar

● mehnatga layoqatli yoshdan kattalar


Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 170,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,2 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega oshganligi kuzatildi (2019-yilning yanvar- mart oylarida 19,4 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(2020-yil oylar bo'yicha, ming kishi)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-mart)



Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 37,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega tushganligi (2019-yilning yanvar - mart oylarida 4,5 promille bo'lgan) kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni
(2020-yil oylar bo'yicha, ming kishi)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni
(yanvar-mart)




Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)




2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining 62,4 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 % i - o'simtalardan, 5,5 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,4 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,3 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1-yoshgacha vafot etgan bolalar soni 2,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 51,1 % i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 23,9 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 13,2 % i - tug'ma anomaliyalardan, 4,0 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 2,5 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,5 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,8 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra; jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



■ O'simtalardan

■ Qon aylanish tizimi kasalliklari


■ Nafas olish a'zolari kasalliklaridan

■ Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan

■ Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan

■ Boshqa kasalliklardan

O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot
(2020-yil yanvar-mart)




Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 132,9 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 10,3 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 122,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 132,9 ming kishi




Nikoh. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 49,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot
(yanvar-mart, ming)




Hududlar kesimida nikoh tuzganlar koeffitsiyenti



Hududlar bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida eng yuqori nikoh koeffitsiyenti Xorazm (10,8 promille), Qoraqalpog'iston Respublikasi (7,8 promille) Buxoro (6,9 promille) Surxondaryo (6,6 promille) viloyatlarida kuzatildi.


Hududlar bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti Jizzax (4,5 promille), Navoiy (4,7 promille) Namangan (4,7 promille) Qashqadaryo (5,1 promille) viloyatlarida kuzatildi.




Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-mart, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti



Hududlar bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti Toshkent shahri (1,0 promille), Andijon (0,9 promille) Samarqand (0,8 promille) Toshkent (0,8 promille) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,3 promille), Jizzax (0,3 promille), Navoiy (0,3 promille) va Sirdaryo (0,3 promille) viloyatlarida kuzatildi.



Migratsiya. 2020-yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 40,1 ming kishini (39,6 ming kishi respublika hududlaridan, 0,5 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 41,5 ming kishini (39,6 ming kishi respublika hududlariga, 1,9 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,4 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 1,4 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi

(ming kishi)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	41,2	40,1
Ko'chib ketganlar	42,6	41,5
Migratsiya saldosi	-1,4	-1,4

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Qashqadaryo (minus 1,7 ming kishi), Samarqand (minus 1,5 ming kishi) va Buxoro (minus 1,0 ming kishi) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 0,8 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plus 7,1 ming kishi) kuzatildi.

XORIJIY MIGRATSIYA

2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni (490 kishi) va jami xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarga nisbatan ulushi, % da



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib kelganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasi (jami xorijga ko'chib kelganlarga nisbatan 34,1 %), Tojikiston Respublikasi (28,6 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Qirg'iz Respublikasi (7,1 %), Ukraina Respublikasi (1,2 %), va boshqa mamlakatlar (9,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni (1906 kishi) va jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan ulushi, % da



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasi (jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan 64,8 %), Rossiya Fedrasiyasi (29,2 %), Qirg'iz Respublikasi (0,9 %), Isroil (0,9 %), Tojikiston Respublikasi (0,8 %), va boshqa mamlakatlar (3,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xorijiy migratsiya
(2020-yil yanvar-mart, kishi)

	Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni	Xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
O'zbekiston Respublikasi	490	1906	-1416
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49	622	-573
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3	19	-16
Buxoro	8	14	-6
Jizzax	1	18	-17
Qashqadaryo	1	18	-17
Navoiy	19	79	-60
Namangan	8	28	-20
Samarqand	23	51	-28
Surxondaryo	8	7	1
Sirdaryo	45	58	-13
Toshkent	191	487	-296
Farg'ona	22	34	-12
Xorazm	1	25	-24
Toshkent sh.	111	446	-335

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni respublika bo'yicha jami 490 kishini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng ko'p kelganlar soni Toshkent viloyati (191 kishi), Toshkent shahri (111 kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (49 kishi) hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni respublika bo'yicha jami 1906 kishini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng ko'p ketganlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi (622 kishi), Toshkent viloyati (487 kishi) va Toshkent shahri (446 kishi) hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida 2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy migratsiyaning minus saldosini Qoraqalpog'iston Respublikasida - 573 kishi, Toshkent shahrida - 335 kishi, Toshkent viloyatida - 296 kishi va Navoiy viloyatida - 60 kishini tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.

Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi
(71) 230-80-65, 67